

**O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIFATINI NAZAROT QILISH
AGENTLIGINING QONUNY VAKOLATLARINI
TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI.**

Ergasheva Ba'sira Bohodir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat boshqaruvi huquqi magistranti

basirabohodirovna@gmail.com

+998942082772

***Annotatsiya:** Mazkur tezisdagi ta'lim sifatini nazorat qilish agentligining huquqiy qonuniy vakolatlari va ularni yanada takomillashtirish va ushbu organ faoliyatining mazmun-mohiyati hamda zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rnini tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim sifatini ta'minlashda davlat nazoratining ahamiyati ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim sifati, ta'lim sifatini nazorat qilish agentligi, davlat nazorati, ta'lim huquqi, akkreditatsiya, monitoring.*

Zamonaviy davlatning asosiy vazifalaridan biri – fuqarolariga yuqori sifatli ta'lim xizmatini kafolatlashdir. Ta'lim sifati nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy rivojlanishning ham poydevori hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida ta'lim sohasida tub islohot siyosatini izchil amalga oshirib kelmoqda. 2020-yilda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH VA TA'LIM XIZMATLARI KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR

TO'G'RISIDA" PF-76 son davlat ta'lim tizimining huquqiy asosini yaratdi. Ushbu tezisda ta'lim sifatini ta'minlashda davlat siyosatining huquqiy mexanizmlari, qonunchilik bazasi, xalqaro standartlar va amaliyot o'rtasidagi munosabat tahlil qilinadi. Yuqoridagi normativ huquqiy hujjat ta'sirida O'zbekiston Respublikasi Prezident Adminstratsiyasi huzurida Ta'lim sifatini nazorat qilish agentligi tashkil etildi. Tezisda asosiy masala mazkur organing qonuniy faoliyati va vakolatlarini kengaytirish va davlat siyosati darajasiga olib chiqish jamiyat va yoshlar uchun ehtiyoj ekanligini asoslaydi. Ta'lim sifatini avvalo insoniyatning turmush hayotini yaxshilashning muhim omilidir, xususan, "Ta'lim sifati - bu ma'lum bir maqsadga erishish va hayot sifatini yaxshilash uchun ma'lum sharoitlarda va ularni qo'llash joylarida olingan bilimlarga bo'lgan talab"^[1]. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ta'lim sifati ustidan samarali nazoratni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (yoki agentlik)ning qonuniy vakolatlarini takomillashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim sifatini baholash va nazorat qilish sohasida vakolatlarning aniq chegaralanmaganligi, ayrim hollarda takrorlanishi yoki yetarli darajada samarali ishlamasligi tizim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa ta'lim sifatining barqaror rivojlanishini ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida belgilangan normalarni amaliyotga to'liq joriy etish, zamonaviy xalqaro standartlarga mos ravishda nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zarurati mavjud. Ayniqsa, raqamlashtirish jarayonlari, ta'lim xizmatlari bozorining

kengayishi hamda nodavlat ta'lim muassasalari sonining ortib borishi nazorat organlari vakolatlarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda.

Shu sababli, ta'lim sifatini nazorat qiluvchi organlarning huquqiy vakolatlarini takomillashtirish, ularning mustaqilligi, shaffofligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi.

“Ta'lim sifati” kategoriyasi xalqaro huquqda ko'p o'lchovli tushuncha sifatida qaraladi. BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakti (1966) 13-moddasida “ta'limga bo'lgan huquq kafolatlangan va uning mavjudligi, qulayligi, maqbulligi va moslashuvchanligi ta'kidlangan”^[2]. UNESCO ning ta'lim sifati bo'yicha yondashuvi ta'lim natijalari, jarayon va resurslar kompleks baholashini nazarda tutadi. Mazkur xalqaro standartlar milliy huquq tizimlarida transformatsiya qilinishi zarur”^[3].

Ta'lim sifati haqida bir qancha qarashlar mavjud, masalan, “Ta'lim sifati – bu ta'limning (natija, jarayon, ijtimoiy tizim sifatida) turli ehtiyojlar, davlat, jamiyat, shaxs manfaatlariga muvofiqligi; ta'limning ierarxiya (yuqoridan quyiga) tamoyillari asosidatashkillashtirilgan, ijtimoiy ahamiyatga ega xususiyat (tavsif, parametr)larining tizimli majmuasi”^[4]. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida har bir fuqaroning ta'lim olish huquqi mustahkamlangan. Ushbu konstitutsiyaviy norma ta'lim sohasidagi barcha qonun hujjatlarining mezoni bo'lib xizmat qiladi. 2020-yilgi “Ta'lim to'g'risida”gi yangi tahrirdagi Qonun ta'lim sifatini baholash, monitoring va akkreditatsiya tizimlarini

yangi tartibda mustahkamladi. Qonunning 8-moddasida “davlat ta’lim standartlarini belgilash vakolati Vazirlar Mahkamasiga yuklatilgan”^[5].

Lekin, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son farmoni va 8-sentabrdagi PQ-275-son qaroriga asosan, Prezident Administratsiyasi huzurida **Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi** tashkil etildi. Agentlik ta’lim sifatini nazorat qilish, litsenziyalash va akkreditatsiya qilish bo‘yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi”^[6]. Bu organning asosiy vakolatlari yuqoridagi normativ hujjatda quyidagilar belgilangan:

“ (a) o‘z vakolati doirasida, shu jumladan, boshqa davlat organlari bilan birgalikda normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;

(b) Vazirlar Mahkamasiga normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa hujjatlarni belgilangan tartibda kiritish;

(v) davlat organlari va tashkilotlaridan, shuningdek, respublikaning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari orqali zarur statistik, tahliliy hamda boshqa ma’lumotlarni olish;

(g) o‘z vazifalarini amalga oshirish uchun davlat organlari va tashkilotlaridan zarur ma’lumotlarni bepul, jumladan, “Elektron hukumat” tizimining idoralararo integratsiya platformasi orqali olish;

(d) Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimlaridan (NEMIS, EMIS) va oliy ta’limdan keyingi ta’limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimidan to‘siqsiz foydalanish;

(j) davlat organlari va tashkilotlariga, jumladan, ta'lim tashkilotlariga ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar kiritish;

(z) mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy holat va qonunchilikdagi o'zgarishlar hamda xalqaro ta'lim makonidagi zamonaviy tendensiyalardan kelib chiqib, kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish talab va mezonlarini yangilab borish;

(i) ta'lim sifatini ta'minlash, akkreditatsiya, reyting va boshqa masalalar yuzasidan xalqaro va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik shartnomalarini tuzish;

(k) ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati bilan bog'liq o'rganishlar, monitoring va so'rovnomalar o'tkazish;

(l) ta'lim tashkilotlarida "xavfni tahlil qilish" tizimi asosida aniqlangan talab va shartlarning buzilishi holatlari yuzasidan Agentlik tomonidan ta'lim tashkilotiga taqdimnoma kiritish hamda kamchiliklarni bartaraf etish uchun muddat belgilash;

(m) aniqlangan kamchiliklar bo'yicha ta'lim tashkilotlariga choralar ko'rish bo'yicha muassis yoki yuqori turuvchi organiga taqdimnomalar kiritish;^[7].

Yuqoriadagi vakolatlar yanada kengaytirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi, vakolatlar qaysidir ma'noda yetarli bo'lishi mumkin, lekin bu vakolatlar orasida mustaqilligini qo'lga kiritgan OTMlarga ta'lim sohasidagi normalarni buzganlik uchun davlat undiruvini asosida jarima ya'ni sanksiya berishni vakolatini ham berish kerak. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda mazkur agentlikning vakolati qonuniy qilib belgilangani kiritilmagan bu esa ta'lim muaassasalaridagi huquq va

majburiyatlarni bajarishda huquqiy kolliziyaga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari mazkur organning faoliyatini qonun usti hujjatlari bilan mustahkamlash ushbu sohada faoliyat yuritayotgan organlarning mustaqiligi ta'minlangan bo'lsada yana bir bor shaffof adolat nuqtai nazaridan muhim pog'onaga ko'taradi va natijada ta'lim sifatini nazorat qilish yanada aniqlashadi. Ta'lim sifatini nazorat qilish agentligining vakolatlarini qonuniylashtirish birinchi o'rinda jamiyat va xalq uchun muhimdir, ayni bu yerda bir shaxs yoki mansabdorning vakolatini mustahkamlashga xizmat qilmaydi. Xulosa o'rnida ushbu tezis amaliy amaliy jihatdan nazarda tutilgan agentlikning vakolatini mustahkamlash xalq mafaatiga xiamat qilishini isbotlaydi.

Foydalangan adabiyotlar

- [1] Abdullayeva R.M. Ta'lim va hayot sifatini oshirish – bugungi kun zarurati sifatida // Inter Education & Global Study. – 2025. – №4. – B. 4–11. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-va-hayot-sifatini-oshirishbugungi-kun-zarurati-sifatida>
- [2] BMT Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakti, 13-modda. — Nyu-York: BMT, 1966 (O'zbekiston tomonidan 1995-yilda ratifikatsiya qilingan).
- [3] UNESCO. The Right to Education: Law and Policy Review Guidelines. — Paris: UNESCO, 2014. — 74 p.

[4] D.Sayfurov, Fayziyeva M. Ta'limda ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarniqayta tayèrlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi. 2017- yil

[5] O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr, yangi tahriri, O'RQ-637). — lex.uz.

[6] Norma.uz <https://share.google/HnlUAFVXpsDqLsje>

[7] <https://lex.uz/docs/-7726514> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.09.2025 yildagi PQ-275-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi PQ-275-son [qarori](#)ga 2-ILOVAO'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi to'g'risidagi

NIZOM 2-BOB